
1 MAYDAN QONUNCHILIKDA NIMALAR O'ZGARADI?



1 maydan qonunchilikda nimalar o'zgaradi?

“Metan-zapravka”larga onlayn kamera o'rnatish majburiy bo'ladi

Prezidentning 2023 yil 10 fevraldagi “Tadbirkorlik sub'ektlarini toifalarga ajratish mezonlari hamda soliq siyosati va soliq ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoniga asosan 1 maydan qator tartiblar o'rnatilmoqda.

Jumladan:

- avtomobillarga gaz to'ldirish kompressor stantsiyalari va avtomobillarga gaz quyish stantsiyalarida elektron o'lchash uskunalari va onlayn video kameralarini o'rnatish hamda ularni soliq organlarining axborot tizimlari bilan integratsiya qilish majburiy hisoblanadi;
- paxta xomashyosi, g'alla yoki sholini qabul qilish va hisobini yuritish bo'yicha axborot tizimlarining operatorlari o'z tizimlarini soliq organlarining axborot tizimlari bilan integratsiya qilishlari majburiy hisoblanadi;
- to'lov xizmatlarini ko'rsatuvchi tashkilotlar jismoniy shaxslar o'rtasida pul o'tkazmalari amalga oshirilganda, ularga ko'rsatilgan xizmatlar uchun (olingan haq, komissiya uchun «0» so'm bo'lgan taqdirda ham) elektron hisobvara-q-fakturalar taqdim etadi va rasmiylashtiradi.

Bunyodjon Enazarov - So'x tuman adliya bo'limi boshlig'i

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-05-05 15:42:17